

FITRATNING “OILA” ASARIDA OILAVIY TARBIYA MUNOSABATLARI TAHLILI

CHDPU “Umumiy pedagogika” kafedrası

Mustaqil tadqiqotchisi

Ismoilova Marhabo Xamitovna

e-mail: marhaboi576@gmail.com

Annotatsiya maqolada Fitratning “Oila” asarida oilaviy yondashuvlar va ularni yoshlar hayotida qanday ahamiyat kasb etishiga e’tibor qaratilgan. Oilaviy munosabatlarda, farzand tarbiyasida “Oila” asari muhim manba sifatida xizmat qiladi. Xulosa qismida Fitratning “Oila” asari orqali yoshlarga tarbiyaviy yondashuvlarni o’rgatishning metodik jihatlarini takomillashtirish bo’yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: Oila Abdurauf Fitrat, tarbiya, oliy ta’lim, talaba, yoshlar, odob, axloq, qadriyat ilmiy-nazariy, asos, takomillashtirish, davlat, jamiyat, kuch, imkoniyat, yoshlar, o’z fikri, yuksak ma’naviyat.

Abstract: of the article focuses on family approaches in Fitrat's work “Family” and their importance in the lives of young people. In family relationships and child rearing, “Family” serves as an important source. The conclusion provides recommendations for improving the methodological aspects of teaching educational approaches to young people through Fitrat's work “Family”.

Keywords: Family Abdurauf Fitrat, upbringing, higher education, student, youth, etiquette, morality, scientific-theoretical value, foundation, improvement, state, society, power, opportunity, youth, own opinion, high spirituality.

Oila har qanday jamiyatning o’ta muhim halqasi hisoblanadi. Shuning uchun ayrim manbalarda u “mikrojamiyat” sifatida talqin etiladi. Chunki oilada jamiyatga xos aksar xususiyatlar kichik ko’rinishda namoyon bo’ladi. Oilaga bashariyat erishgan eng katta ma’naviy boylik sifatida ham qarashimiz kerak. Kishilik jamiyatini taraqqiyotini oilasiz aslo ko’z oldimizga keltira olmaymiz. Chunki inson bolasi ikki jins vakilining ixtiyoriy kelishuvi asosida qurilgan oilada dunyoga keladi. Hatto, oila qurishdan asosiy maqsad ham – amalda farzand ko’rishdan iborat. Yana bir masala borki, odam bolasi o’z kunini o’zi ko’radigan kamolot yoshiga yetishi uchun ko’p yillar talab qilinadi. Bu esa aynan oilada amalga oshadi. Shu asoslarga ko’ra, oila pedagogikasi fanining ildizlari juda qadimiyatga borib taqaladi. Hatto, diniy talqinlarga suyanadigan bo’lsak, bu Odam Ato bilan Momo Havoning yaratilishidan boshlangan. Chunki odamzod o’zi yaralgandan oila bo’lib yashashga undalgan. Oila haqida sharq olimlari ijodidan buyuk meros bizga yetib kelgan. Jumladan Abdurauf Fitratning “Oila” asarini oila boshqarish tartiblari to’g’risidagi muhim manba sifatida aytishimiz mumkin. “Oila” asari 1914 yilda

tojik tilida yozilgan, 2013 yilda Shodmon Vohidov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lib, Abdurauf Fitratning badiiy va ilmiy asarlari bilan birga axloqiy masalalarga doir bir qator risolalari bor. Ularda komil inson shaxsini shakllantirish bilan bog'liq muammolar va ularning yechimi aks etgan. Jamiyatning asosi bo'lgan oila, uning inson hayotidagi o'rni, oila boshlig'i va a'zolarining vazifalari hamda oilaviy tarbiya muammolari o'z aksini topgan mazkur risola keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan. Asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida uylanish va uylanmaslik xususida, nechta xotiga uylanish mumkin? uylanmoq zarur bo'lganda qanday xotinnitlanish lozim?, bo'lajak er-xotin birinchi navbatda nimalarga ahamiyat bersin?, mahr va toy qanday bo'lishi lozim, er-xotinning qanday yashamoqligi xususida, oilaning maishati va idorasi, iffat va mo'minlik, gayrat, visol, murosas-yu madora, taloq, homiladorlik davri kabi mavzular yoritilgan bo'lsa, ikkinchi qismida farzand tarbiyasi, badan tarbiyasi, aquy tarbiya, axloqiy tarbiya, maktab, qizlar ham ilm olishlari kerakmi?, ota-onaning haq-huquqlari, yetimlar haq-huquqlari, xizmatkorlar huquqlari haqida fikr yuritilgan.

Bu yorug' olamda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, "farzand" deb atalmish bebaho ne'mat bor. Har qanday jamiyat oilalardan tarkib topadi. Oila jamiyatning kichik, biroq, eng asosiy bo'g'ini sanaladi. Chunki jamiyatning mavjudligi unda yashovchi kishilarni o'z ichiga olgan oilalarning borligi bilan belgilanadi. Oila – er-xotin, ularning bolalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmuasi, xonadonni bildiradi. U "rafiqa", "xotin" ma'nolarini ham anglatadi. Oila jamiyatning bir bo'lagi sifatida er-xotin va qarindoshchilik aloqalari ittifoqi asosida tuzilgan shaxsiy hayotning muhim shakli hisoblanadi.

Oilada farzand tug'iladi, unib o'sadi. Farzand tarbiyasi barcha davrlarda ham dolzarflik kasb etib kelgan. Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim. Kelajakdagi yo'li ravon bo'lishini istagan har bir ota- onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo'lgan farzandlarini ulg'aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo'ladi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Agar ota-ona vaqtida farzandiga e'tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg'urmasa, keyinchalik afsus – nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O'sha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech bo'lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e'tiborli bo'lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo'lmaslik lozim. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bejizga aytilmagan. Har bir ota-ona o'z farzandi uchun ko'zgudir. Ularning muomala va munosabati, o'zini tutishi farzandiga bo'lgan e'tibori alohida ahamiyatga ega. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: "Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib

sharaf topdi. Tarbiyaning yana biri bolaga ilmu adab o'rgatish uchun muallim chaqirishdir. O'g'ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo'ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarardir". Bu fikrlar orqali qattiqqo'llik va shafqatning me'yorda bo'lishini bilish mumkin.

Jadid adabiyotining namoyandasi Abdurauf Fitrat jamiyat rivoji va yurt ravnaqi farovonligida oilaning o'rnini xususida fikr yuritib, "Oila" asarida shunday mulohazalar bildiradi: "Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi". Jamiyatning ma'naviy yuksalishi, avvalo, shaxs tarbiyasi va axloqiy madaniyati bilan uzviy bog'liq. Har bir oilada dunyoga kelgan farzandlarning tarbiyasi, ta'lim, psixologiya, falsafa va din sohalarida doimiy o'rganib kelinayotgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada tarixiy va zamonaviy davrlarda yashagan taniqli olim va mutafakkirlarning farzand tarbiyasiga oid fikr va mulohazalarini ko'rib chiqishimiz joizdir. Abdurauf Fitrat o'z asarlarida, jumladan "Oila" da, zamona talabiga mos tarbiya usullarini ilgari surgan. Uning bu asari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga bo'lgan munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy oilalarning murakkab psixologik va pedagogik xususiyatlari mavjud. Oila bilan oila ko'p jihatdan bir-biridan farq qiladi. Bo'lajak otasona nikohdan o'tmasdan avvaldanoq oilaviy hayotni tashkil etish hamda farzandlar tarbiyasini yo'lga qo'yishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishi zarur. Ochig'ini aytganda, oilaviy hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarning barchasi ham bu borada yetarlicha pedagogik bilimlarga ega emas.

Jamiyatning asosiy maqsadi har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat. Buni esa ma'rifatsiz aslo amalga oshirib bo'lmaydi. Avvalo, oilalarda kitobga mehr qo'ygan ona-onalar sonini ko'paytirish lozim. Ko'p kitob o'qishning esa qatorqator afzalliklari bor: 1) bolalar hayot va uning mazmunini erta anglaydi; 2) turli hayotiy vaziyatlarda oqilona, to'g'ri yo'l tutishni o'rganadi; 3) ularda fikrlash qobiliyati kuchli rivojlanadi; 4) jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yorlardan xabardor bo'lib, ularning ijtimoiy ahamiyatini to'g'ri baholashni o'rganadi; 5) badiiy asar qahramonlari misolida haqiqat va haqsizlik, erkinlik va erksizlik, ezgulik va yovuzlik, yaxshi va yomon, oq va qoraning mohiyatini anglash imkoniyatiga ega bo'lgan holda o'zlarida muayyan axloqiy sifatlarning shakllanishiga erishadi. Zamonaviy taraqqiyotning tezkorligi, shuningdek, "ommaviy madaniyat" nomi ostida targ'ib etilayotgan g'oyalarning turli mintaqalar hududiga keng yoyilayotgani oqibatida bugungi kunda oila tarbiyasini tashkil etishda keskin ta'sir etmoqda. Oilashunos olimlar oiladagi tarbiya jarayonining qoniqarsizligi sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatishadi: – Oila iqtisodiy rivojlanish darajasining pastligi. – Turmush tarzini yo'lga qo'yishga nisbatan ongli yondasha olmaslik. – Oilada ayollarning zimmasiga keragidan ortiq mas'uliyat yuklanayotgani.

- Oilaviy ajrimlar sonining yuqoriligi.
- Ota va onaning bolalar tarbiyasini tashkil etishda birdek mas’uliyatli emasliklari.
- Avlodlar orasidagi ziddiyatlarning kuchayib borayotgani.
- Oila bilan ta’lim muassasalari o’rtasidagi hamkorlikning uzluksiz bo’lishiga

erishilmayotgani. Oila shaxsni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda yetakchi tarbiya maskani hisoblanadi. Chunki, ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko’rsatadiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo’lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, fe’latvor va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy ma’naviy qiyofasini ko’radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi. Oilada milliy xususiyat kasb etishida uning demografik holati muhim ahamiyatga ega. Ko’p bolali o’zbek oilalarida patriarxal tartibning saqlanib qolayotgani oilaviy munosabatlarning barqarorligi hamda oila tarbiyasi samaradorligini ta’minlovchi omil va ko’nikmalarning avloddan-avlodga o’tishini ta’minlaydi. Bunday oilalarda jamoaviylik katta kuch bo’lib, yuzaga keluvchi har bir muammo birgalikda hal qilinadi. Kam bolali oilalarda individuallik, “men”lik ustuvor o’rin tutishi xavfi mavjud. Ota-ona yoki katta yoshdagi oila a’zolari bola (bir nafar) yoki bolalar(ikki nafar)ning xohish-istaklarini doimiy ravishda inobatga olishadi. Ularning shaxsiy manfaatlari oilaning umumiy manfaatlaridan ustun turadi, shu tariqa bolalarda iste’molchilik kayfiyati yuqori bo’lishi ehtimoldan xoli emas.

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”⁵, – deb ta’kidlanishi pedagogika ta’limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o’z fikrini mustaqil hayotga tayorlashdek yuksak ma’naviyatli fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo’yadi. OTMLarining Pedagogika darslarida ham, oliy ta’limda ham negadir Abdurauf Fitratning Oila asaridan samarali foydalanilmaydi bu talabalarga, mustaqil hayotga tayyorlay olmaslikka sabab bo’lmoqda. Mamlakatimizda mustaqillik sharofati bilan oilaning ijtimoiy, ma’naviy, huquqiy asoslarini takomillashtirish, uning manfaatlarini himoya qilishni ta’minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Fitratning ilmiy – pedagogik merosi hamda “Oila” asarida bayon etilgan oila tarbiyasiga doir g’oyalari, talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash va inonparvarlik tamoyili asosida talabalarni oilaga tayorlashning ilmiy-nazariy asoslari mantiqiy tuzilmasi komponentlarining mazmuni takomillashtirilgan ta’limida tutgan o’rni va vazifalar hamda Abdurauf Fitratning oila tarbiyasiga oid ilmiy pedagogik g’oyalari o’rganilgan, bir tizimga keltirilgan hamda talabalarni ijtimoiy jihatdan oilaga moslashish kompetensiyaning tizimli hosil bo’lishi va rivojlanishiga erishish mumkin.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki buyuk mutaffakkir olimlarimiz, jumladan Fitratning “Oila” asari orqali yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash , ularni mustaqil

hayotda o'z o'rnlariga ega mamlakatimiz uchun kerakli insonlar qilib tarbiyalash bugungi maqsadlarimizning asosi hisoblanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Abdulkarimov H., Nurumbekova Y. Oila pedagogikasi. O'quv-uslubiy majmua. – Guliston: 2017.
3. Abdurashidxonov M. Xotiralarimdan. – Toshkent: 2001.
4. A vlonyA. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. J. 1, 2. – Toshkent: 1998.
5. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. – Moskva: 1926.
6. Alimova D. Djadidizm v Sredney Azii. Puti obnovleniya, reformy, borba za nezavisimost. – Toshkent: 2000.
7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 14. – Toshkent: Fan, 1998.
8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 16. – Toshkent: Fan, 2000. 9
9. . Fitrat. A. OILA. Tanlangan asarlar. IV jild. – T.: "Ma'naviyat", 2006 y. - B.294.